



**MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARIGA
O'TISH INVESTITSIYA JALB QILISH VA XALQARO DARAJADA
QIYOSLANUVCHANLIKNI TA'MINLAYDIGAN OMILLARDAN BIRI**

Sharofiddinov Shohrux Ulug'bek o'g'li

Alfraganus university "Buxgalteriya

hisobi va soliq "kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan MHXSni joriy etish iqtisodiyot rivojlanishining muhim shartlaridan bo'lgan investitsiya jalg qilish, yangi bozorlarga chiqishda muhim omil hisoblanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Acca, eksport, investitsiya, moliyaviy hisobotning xalqaro standarlari, moliyaviy boshqaruv.

Аннотация: ВВ данной статье автор говорит о том, что внедрение МФСО считается важным фактором привлечения инвестиций и выхода на новые рынки, что является одним из важных условий экономического развития.

Ключевые слова: Acca, экспорт, инвестиции, международные стандарты финансовой отчетности, финансовый менеджмент.

Abstract: In this article, the author discusses the fact that the introduction of IFRS is an important factor in attracting investment and entering new markets, which are important conditions for economic development.

Keywords: ACCA, export, investment, international financial reporting standards, financial management.

Kirish

Hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda investitsiya jalg qilish muhim va dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz Oliy majlisga murojaatnomasida xususan investitsiyalar haqida shunday ta'kidlaydilar.

Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy-investitsiyalarini ko'paytirish uchun



sharoitlarni yanada yaxshilaymiz. Biz so‘nggi olti yilda investitsiyalar hajmini yalpi ichki mahsulotning 30 foizidan oshirishga erishdik. Kelgusi yili qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalg qilinadi, shundan 25 milliard dollar xususiy investitsiyalar bo‘ladi. Jumladan, umumiyligi 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushiramiz va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlanadi.¹ Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni to’g’ridan-to’g’ri jalg etilishi, erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni taqozo etmoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo’jalik subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan buxgalteriya axborotini tayyorlashda tobora keng foydalanilmoqda.

Ma’lumki,

moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarini bilmasdan turib ushbu standartlarga o’tib bo’lmaydi. Respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4200 dan ko’proq qo’shma korxonalar tashkil qilingan. Bu korxonalardan 850 dan ortig’i Rossiya Federatsiyasi, 396 tasi Buyuk Britaniya, 242 tasi AQSh, 159 tasi Qozog’iston, 114 tasi Germaniya va boshqa mamlakatlar investisiyalari ishtirokidagi korxonalar hissasiga to’g’ri keladi. Tabiiyki, bunday sharoitda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etish va yuritishni talab qiladi.²

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ning talablari ko’plab pozitsiyalari bo'yicha MHXS talablariga juda yaqinlashtirilgan bo’lsa-da, lekin boshqa, ba’zan esa asosiy pozitsiyalar bo'yicha farqlar hamon saqlanib qolmoqda. Eng muhimi shuki, faoliyat yuritayotgan xo’jalik yurtituvchi subyektlarning katta qismida mavjud bo’lgan asosiy vositalar, zaxiralar, nomoddiy aktivlar kabi obyektlarni hisobga olishga nisbatan yondashuvlardagi farqlar saqlanib turibdi. O’z navbatida, transformatsiya tartibotlarini o’tkazish

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga va O’zbekiston xalqiga murojaatnomasi 20.12.2022

²Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. – T.: TDIU,5-bet



chog’ida aksariyat amaliyotchi buxgalterlar aynan ushbu aktivlarni qayta hisoblashiga to’g’ri keladi.³

S.N. Tashnazarovning fikriga ko’ra “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti fanining alohida tarmog’i bo’lib, moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari zaruriyati, ishlab chiqilishi, ularning mazmuni, interpritatsiyasi va qo’llanilishining nazariy va metodologik masalalarini o’rganuvchi qismidir.[3]

O.G. Jitluxina fikricha, “asosiy sifat xususiyatlari bir qator boshqa xususiyatlarni o’z ichiga oladi. Demak, ma’lumotlarning dolzarbligiga prognoz qiymati, axborotning muhimligi ta’sir qiladi”. Ma’lumotning muvofiqligi va to’g’riliği asosida qarorlar qabul qilish va to’g’ri baholash mumkin bo’ladi.[4]

Davronovning fikricha, IFRSni joriy etish moliyaviy axborotning yaxshilanishi va iqtisodiy o’sish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.[5] Yuqorida fikr ko’plab mamlakatlarda o’z tasdig’ini topgan desak mubolag’a bo’lmaydi chunki investorlar moliyaviy ma’lumotla to’g’ri va aniq bo’lgandagina ular o’z mablag’larini soha yoki tarmoq uchun kiritadilar. Islomov o’zining “Moliyaviy hisobotlashda xalqaro standartlarni qo’llashning jamiyatga ta’siri” maqolasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga asoslangan tizimlar orqali tashkilotlarning iqtisodiy holatini aniqroq aks ettirishini va MHXSni qo’llash nafaqat moliyaviy tizimni yaxshilashga, balki davlatning xalqaro iqtisodiy aloqalarini ham mustahkamlashga yordam beraishini ta’kidlaydi.[6]

Bizning fikrimizcha, so’nggi yillarda mamlakatimizdagi iqtisod-moliya sohasidagi islohotlar tufayli investorlar ishonchi ortib, horijiy investitsiyalar ulushi ortib bormoqda. Bu sohaga MHXS joriy qilish orqali sohaga kiritilayotgan investitsiyani yanada ko’paytirishi mumkin. Soha mutahassislari ta’kidlashicha, MHXSga o’tishning so’nggi 15 yilda Yevropa, qolaversa, jahon tajribasiga asoslanib, quyidagi ijobiy jihatlarni kuzatish mumkin:

Birinchidan, axborot shaffofligini oshirish – shaffoflik xususiyati sifatli

³ Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. – T.: TDIU, 6-bet



moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta'minlaydi. Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, hisobdorlik oshishi – bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o'rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiliginini kamaytiradi. Natijada investorlar o'z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo'yicha to'laqonli axborotga ega bo'ladi.

Uchinchidan, iqtisodiy samaradorlik oshishi – yagona moliyaviy tildagi hisobotlarni tahlil qilish asosida, investorlar kapitalni xalqaro miqyosda yo'naltirish va xatar (risk) larni kamaytirish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, bozor likvidligi yaxshilanishi va kapital sarfining pasayishi – moliyaviy axborotlarning batafsil yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlik bozor likvidligini oshiradi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi.

Beshinchidan, kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorlarida savdolar ko'lamining kengayishi – bo'sh kapital mablag'laridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning turli sohalari zarur kapital bilan ta'minlanishi, kapital bozorlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, qimmatli qog'ozlar bozorining muayyan mamlakat ichida shakllanishi va savdolar ko'payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi. Bunda MHXS asosidagi hisobot ma'lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi

Oltinchidan, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishi – milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning uchun milliy bozorda xorijiy investorlarga ijobjiy investitsiya muhiti yaratilishi hamda investorlar huquqlari himoyalangan bo'lishi lozim. MHXSning kapital bozor qatnashchilari tomonidan qabul qilinishi va unga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ochiq e'lon qilinishi ushbu jarayonlarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi.



Yettinchidan, moliyaviy tahlilchilar prognozlaridagi aniqlik – moliyaviy axborotning sifati va qiyosiyligini ta'minlaydigan muhit moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi va prognozlash tahlillari sifatini oshiradi. Ushbu tahlillar kapitalning samarali boshqaruvi va kelgusida kapital jalg etilishi yoki taqsimlanishi bo'yicha to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi⁴

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda real sektorni bilimli va malakali kadrlar bilasni ta'minlash uchun oliy ta'limga muassasalarida xalqaro talablarga javob beradigan o'quv fan dasturlar va o'quv rejalarini ishlab chiqilmoqda. ACCA xalqaro tashkilotining akkreditatsiya talablari asosida yangilangano'quv rejaga quyidagi fanlar kiritildi

“Biznesda buxgalter (F-1-Accountant in Business)”;

“Menejmentlik buxgalteriya hisobi (F-2-Management Accounting)”;

“Moliyaviy buxgalteriya hisobi (F-3-Financial Accounting)”;

“Korporativ va bisnes huquqi (F-4-Corporate and Business Law)”;

“Samaradorlikni boshqarish (F-5-Performance Management)”;

“Soliqqa solish (F-6-Taxation)”;

“Moliyaviy hisobot (F-7-Financial Reporting)”;

“Audit va kafolat (F-8-Audit and Assurance)”;

“Moliyaviy menejment (F-9-Financial Management)”

Bu fanlardan asosan “Moliyaviy hisobot (F-7-Financial Reporting) kursidan imtihondan 50 ball va undan yuqori bal olgan nomzodlar imtihondan o'tgan hisoblanib xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan banklar aksiyadorlik jamiyatlari, va boshqa tashkilotlarda buxgalteriyani xalqaro standartlar asosida yuritishlari mumkin bo'ladi. Shuningdek cboshqa xalqaro sertifikat va diplomlar mavjud masalan Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)» sertifikatlari olishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari

⁴ Hamid IRGASHEV,ACA, ACCA, Buyuk Britaniyadagi Hult xalqaro biznes maktabi dotsenti,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xorijiy maslahatchisi va eksperti,
Ibrohim AXMADXONOV,Moliya vazirligi buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti departamenti direktori o'rinosasi.



hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi nizomga asosan hozirgi kunda korxona va tashkilotlar BHMS va MHXS asosida tuzildagin moliyaviy hisobolar berilgan.

1-jadval

№	BHMSga asosan tuzilgan yillik moliyaviy hisobot shakllari	MHXSGa asosan tuzilgan yillik moliyaviy hisobot shakllari
1	Buxgalteriya balansi;	Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot
2	Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot;	Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot
3	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot	Xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot
4	Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot;	Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot (bilvosita usul);
5	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar (moliyaviy hisobotga izohlar)	Ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma’lumotlaridan iborat izohlar (moliyaviy hisobotga izohlar)

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlashlari investitsiya uchun muhim hisoblanadai korxonaga investitsiya qilishdan oldin xorijiy investorlar xalqaro standartlar asosida yuritilgan moliyaviy hisoblatni tahlil qilishlari uchun muhim hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning Yalmdagi ulushini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

Yillar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Yaimdagি foiz ulushi	20,1	22,7	29,1	36,8	34,7	32,4	29,7	33,4

So‘ngi yillarda real va moliya sektoridagi islohotlar natijasida tarmoq va sohalarga investitsiyalar oqimi ko‘paymoqda. Yuqoridagi jadvaldan ham ko‘rishimiz mumkin. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar



asosida yuritishi asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi oshishiga yordam bermoqda.

3-jadval

Yillar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Ulushi	20,7	23,8	24,3	43,6	42,7	42,3	42,8	56,7

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi yildan yilga oshib borayotganligini bilishimiz mumkin.. Bu o'z navbatida sohalarga yangiliklar, inovatsiyalar olib kirishini hisobga olsak soha va tarmoqlarni raqabotbardoshligi oshirishga xizmat qiladi

Xulosa va takliflar

Soha va tarmoqlarni yanada rivojlantirish uchun sohaga moliyaviy hisobni xalqaro standartlarni jalb qilish muhim hisoblanadi. Bu o'rinda moliyaviy hisobni xalqaro standartlariga trasformatсиya qilish uchun kadrlar zahirasini tuzish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24 fevraldagи 4611-sonli qarori asosida ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha "yo'l xaritasi" tuzilgan bo'lib bosqichma bosqich kadrlar zahirasini tuzish nazarda tutilgan. Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro talablarga javob beradigan o'quv fan dasturlar va o'quv rejaliari ishlab chiqilishishini jadal davom etirish bilan birgalikda talablarni dars mashg'ulotlariga amaliyotchilarni jalb qilish ham muhim hisoblanadi. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o'tish biznes uchun qo'shimacha moliyalashtirish manbaalarini olishga imkon berishi bilan birgalikda milliy moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida transformatsiya qilishni qoidalarga muvofiq tuzishni qonunchilikda mustahkamlash zarur, chunki soliq va statistika tashkilotlarida hisobotlar milliy standartlar asosida tuziliganligi sababli moliyaviy hisobotlarning ham milliy va xalqaro taqdim etish korxona va tashkilotlar buxgalteriya hisobini tayyorlash xarajatlarini oshirishini aytib o'tish lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi 20.12.2022
2. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O’quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. 3.S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. Toshkent moliya iqtisod nashriyoti. 2019. 584-bet.
4. Житлухина О.Г. О месте и особенностях производных финансовых инструментов в системе финансовых инструментов в аспекте международных стандартов финансовой отчетности. // Инновационная наука. 2015. № 3. С. 24-27
5. Davronov, A. “Xalqaro moliyaviy hisobotlash standartlarining rivojlanishi va ularga o’tish”. 2019
6. Islomov, A. “Moliyaviy hisobotlashda xalqaro standartlarni qo‘llashning jamiyatga ta’siri”. 2019.
7. N.B.Abdusalomova “Sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish” 2024
8. Z.Nurmatov “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standarlarini O‘zbekiston Respublikasida qo‘llashning ahamiyati va dolzarblig 2024
9. S.N. Tashnazarov “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tishdagi tajribalar va jadallashtirish omillari” 2023